



YURAK-QON TOMIR KASALLIKLARIDA BEMORLARNING HIMOYA-YENGISH XULQ-ATVOR XUSUSIYATLARI

V.K.Abdullayeva, B.B.Safarbayev

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

✓ *Rezyume*

Maqolada yurak-qon tomir kasalliklarida bemorlarning himoya-yengish xatti-harakatlarini aniqlash va psixoterapevtik taktikalarni optimallashtirish bo'yicha ilmiy ma'lumotlar va olib borgan tadqiqotlarimiz tahlili keltirilgan. Muayyan shaxs tipologiyasi va psixopatologik buzilish shakli bilan bog'liq stressli hayotiy vaziyatlarni yengish strategiyasining kognitiv va xulq-atvor mazmunini tuzatishga qaratilgan kognitiv psixoterapiyadan foydalanish, yurak-qon tomir kasalligidan aziyat chekayotgan bemorlarga nisbatan terapevtik chora-tadbirlar samaradorligini oshirishga imkon berdi.

Kalit so'zlar: himoya-yengish xatti-harakatlari, psixoterapiya, yurak-qon tomir kasalliklari

ОСОБЕННОСТИ ЗАЩИТНО-СОВЛАДАЮЩЕГО ПОВЕДЕНИЯ БОЛЬНЫХ С СЕРДЕЧНО-СОСУДИСТЫМИ ЗАБОЛЕВАНИЯМИ

В.К.Абдуллаева, Б.Б.Сафарбаев

Ташкентский педиатрический медицинский институт
Ургенчский филиал Ташкентской медицинской академии

✓ *Резюме*

В статье представлены литературные данные и анализ собственных исследований по выявлению защитно-совладающего поведения и оптимизации психотерапевтической тактики у больных с сердечно-сосудистыми заболеваниями. Применение когнитивной психотерапии, нацеленной на коррекцию когнитивного и поведенческого содержания стратегий совладания со стрессовыми жизненными ситуациями, коррелирующих с определенной личностной типологией и формой психопатологических нарушений, позволило повысить эффективность терапевтических мер в отношении пациентов с сердечно-сосудистой патологией.

Ключевые слова: защитно-совладающее поведение, психотерапия, сердечно-сосудистая патология

FEATURES OF PROTECTIVE-COUPING BEHAVIOR IN PATIENTS WITH CARDIOVASCULAR DISEASES

V.K.Abdullaeva, B.B.Safarbaev

Tashkent Pediatric Medical Institute
Urgench branch of the Tashkent Medical Academy

✓ *Resume*

The article presents literature data and analysis of our own research on the identification of protective coping behavior and optimization of psychotherapeutic tactics in patients with cardiovascular diseases. The use of cognitive psychotherapy aimed at correcting the cognitive and behavioral content of strategies for coping with stressful life situations, correlated with a certain personality typology and form of psychopathological disorders, has made it possible to increase the effectiveness of therapeutic measures in relation to patients with cardiovascular pathology.

Key words: protective coping behavior, psychotherapy, cardiovascular pathology



Dolzarbligi

J SST ma'lumotlariga ko'ra, yurak-qon tomir kasalliklari butun dunyo bo'ylab o'lim ko'payishining asosiy sabablaridan biridir [3, 11]. Tibbiy psixologiyada gipertoniya va yurak ishemik kasalliklari klassik psixosomatik kasalliklar sifatida qaraladi. Shu munosabat bilan bemorlarga yordam har tomonlama tibbiy-psixologik xususiyatga va shaxsga qaratilgan yo'nalishga ega bo'lishi kerak [12]. Buning uchun kasallik holatiga javob berishning psixologik omillarini hisobga olish kerak. Kasallikka shaxsiy munosabat, hayotiy-biologik, kasbiy-mehnat, ijtimoiy-psixologik va individual-psixologik yondashish ma'nolarga bog'liq [13, 14]. Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bemorlar bir qator sabablarga ko'ra affektiv buzilishlarning rivojlanishiga ko'proq moyil [6, 15] va yurak-qon tomir kasalliklari bo'lgan bemorlarda affektiv buzilishlar mos ravishda 64% - 80% hollarda aniqlanadi. Shu bilan birgalikda ushbu holatlarning komorbidlik darajasi 70% ga yetadi [5, 8]. Xavotirli-depressiv buzilishlarning yurak-qon tomir kasalliklari tarkibida kuzatilishi ushbu patologiyani kompleks davolashda psixoterapiyaning muhim rolini belgilaydi. [7]. Shu sababdan, stress bilan kurashish strategiyalari psixoterapevtik ta'sirni qo'llash nuqtalari bo'lishi mumkin; kasallikning boshlanishini va nevroitik "qatlamlar"ning rivojlanishini aniqlash, bemorning munosabatlar tizimining elementlari; bemorning ijtimoiy faoliyati, oila va jamiyatga qayta moslashishi; biologik tabiatning terapevtik ta'sirining samaradorligini oshiradi [2, 9]. Psixosomatik buzilishli bemorlarning shaxs-tipologik xususiyatlari va ularning stressni yengish strategiyalarining o'zaro ta'siri, ushbu bemorlarga statsionar sharoitlarda psixoterapevtik yordam ko'rsatish hajmini aniqlash uchun optimal terapevtik maqsadlarni izlash haligacha dolzarbligicha qolmoqda. [1, 4, 10]. Shu munosabat bilan yurak-qon tomir kasalliklari bilan og'rigan bemorlarning klinik-psixologik va individual-shaxsiy parametrlarini o'rganish asosida samarali psixoterapevtik yondashuvlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, ularning psixosomatik kasalliklarning shakllanishi davrida yuzaga keladigan stressli vaziyatlarni yengish strategiyasini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuvlar nafaqat kasallikni davolashga, balki uning prognoziga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi, bu esa inson sog'lig'ining ajralmas ko'rsatkichi sifatida hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi.


Tadqiqotning maqsadi yurak-qon tomir kasalliklarida bemorlarning himoya - yengish xulq – atvor xususiyatlarini o'rganish va psixoterapevtik uslublarini takomillashtirishdan iborat.

Material va usullar

Yurak-qon tomir kasalligi bo'lgan 104 bemor tekshirildi. Ulardan 51 nafariga gipertoniya kasalligi I va II daraja, 53 nafariga – yurak ishemik kasalligi tashxisi qo'yilgan va affektiv buzilishlar ham aniqlangan. Ular orasida erkaklar soni 53 (50,9 %), ayollar soni 51 (49,1%) ni tashkil etdi. Erkaklarning o'rtacha yoshi 52,9+12,2 edi, ayollarniki esa 54,3+9,0 edi. Ushbu bemorlarga biz quyidagi affektiv kasalliklar tashxisi qo'ydik: 44 (42,3%) bemorga yengil depressiv epizod (F32.0), 60 (57,7%) bemorga aralash xavotirli - depressiv buzilish (F41.2). Tekshirilgan bemorlarning yosh oralig'i 30 yoshdan 55 yoshgacha edi. Tadqiqotlarga kiritilgan ushbu bemorlar tasodifiy ravishda 2 ta bir xil guruhga bo'lingan. Asosiy guruh psixoterapiya va psixofarmakoterapiya bilan davolangan 58 bemordan iborat edi. Taqqoslash guruhi 46 kishidan iborat bo'lib, ularni davolash terapevtik standartlarga muvofiq va psixoterapevtik tuzatishdan foydalanmasdan psixofarmakoterapiya yordamida amalga oshirildi. Guruhlar klinik va ijtimoiy-demografik jihatdan taqqoslandi. Guruhlarni shakllantirish quyidagi mezonlar asosida edi: klinik tekshiruv asosida aniqlangan aralash xavotirli - depressiv buzilish [F41.2] yoki yengil depressiv epizod [F32.0] mavjudligi. Tadqiqotga bemorlarni tekshirishni qiyinlashtiradigan; og'ir somatik patologiyadan aziyat chekadigan, shuningdek, o'rganishni qiyinlashtiradigan og'ir ruhiy patologiya belgilari aniqlangan shaxslar kiritilmagan: organik ruhiy kasallik (XKT-10 bo'yicha F00-F09), endogen kasalliklar (F20-F29), psixoaktiv moddalarni iste'mol qilish natijasida aqliy va xulq-atvor buzilishlari (F10-F19), aqliy zaiflik (F70 - F79) shular jumlasidandir. Bemorlarni tekshirishda somatik holat baholandi, psixologik ko'rsatkichlar o'rganildi. Klinik va psixologik tekshiruv quyidagi testlarni o'z ichiga oldi: Leongard-Shmishkek so'rovnomasi, Spilberger-Xanning reaktiv va shaxsiy xavotirlarni aniqlash shkalasi, R. Lazarusning "koping – strategiyasi" so'rovnomasi, xavotir va depressiyaning gospital shkalasi.

Natija va tahlillar

Davolanishdan oldingi birinchi bosqichda bemorlar klinik va psixologik tekshiruvdan o'tkazildi, bu esa quyidagi ma'lumotlarni olish imkonini berdi. Tekshirilgan guruhdagi bemorlar yuqori shaxsiy xavotir va o'rtacha reaktiv xavotir bilan ajralib turardi. R. Lazarusning "koping – strategiyasi" so'rovnomasida aniqlangan stressni yengish uchun yetakchi strategiyalar ikkala guruhda ham "o'zini - o'zi boshqarish", "ijtimoiy yordam qidirish", "muammoni yechimini rejalashtirish" bo'lib, intensivligi yuqori darajada edi (1-rasm).



1-rasm. Davolanishdan oldin tekshirilgan bemorlarning koping – strategiyalari


Tadqiqotda korrelyatsion tahlil bemorlarning shaxs – tipologik xususiyatlarining va ushbu bemorlar tomonidan qo'llaniladigan stress bilan kurashish strategiyalari orasida statistik jihatdan ahamiyatli bog'liqligini ko'rsatishga imkon berdi. Natijada, xavotirli – shubhalanuvchan bemorlar namoyishkor va emotsional labil bemorlarga qaraganda ko'proq "ijtimoiy yordam qidirish" strategiyasini afzal ko'rishdi ($r=0.263$; $p<0.05$), distimik shaxslar asosan "masofa saqlash" va "vaziyatdan qochish" strategiyalarini tanladilar. Ayollar tez-tez ($r=0,298$; $p<0.05$) o'z maqsadlariga erishish uchun "ijtimoiy yordam qidirish" strategiyasidan foydalanganlar, erkaklar esa "o'zini o'zi boshqarish" strategiyasini afzal ko'rishgan ($r=0.342$; $p<0.05$).

Olingan ma'lumotlar keyingi bosqichda tez-tez qo'llaniladigan shiddatli koping - strategiyalari asosida yotadigan irratsional kurashish shakllarini aniqlashga, ushbu kurashish shakllarini qayta ko'rib chiqishga, so'ngra ma'lum bir mikroijtimoiy muhitda javob berish va xatti-harakatlarning moslashuvchan va konstruktiv uslublarini shakllantirishga qaratilgan shaxs tipologiyasiga muvofiq yanada tabaqalashtirilgan psixoterapevtik ishlarni amalga oshirishga imkon berdi.

Psixoterapevtik ta'sirning maqsadi, yurak-qon tomir kasalligi bilan og'rigan turli xil shaxs-tipologik fonida bo'lgan bemorlarda stressni yengish uchun ishlatilgan strategiyalar, affektiv buzilishlarning asosini tashkil etuvchi kognitiv disfunktsional ko'rinishlar bo'lgan.

O'rganilayotgan asosiy guruhdagi xavotir va depressiv buzilishlari bo'lgan bemorlarning kasalxona sharoitida kompleks davolashda psixoterapevtik korrektsiya samaradorligi mezoni, salomatlikning psixoemotsional va jismoniy tarkibiy qismlari, taqqoslash guruhi bilan solishtirganda asosiy klinik va psixologik parametrlarning yanada sezilarli ijobiy dinamikasi, shuningdek, kasallikka qarshi kurash strategiyasini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar edi. Terapevtik kurs yakunida biz o'rganilgan bemorlarning asosiy klinik va psixologik parametrlarining qiyosiy dinamikasini baholadik.

Shunday qilib, Spilberger-Xaninning reaktiv va shaxsiy xavotir shkalasi ma'lumotlarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, ikkala guruhda ham reaktiv xavotirning pasayishi kuzatilgan, birinchi guruhda bu pasayish aniqroq bo'lgan. Asosiy guruhdagi shaxsiy xavotir darajasi yuqori darajadan o'rtacha shaxsiy xavotirgacha kamaydi, ikkinchi taqqoslash guruhida ushbu ko'rsatkich biroz pasayganiga qaramay, shaxsiy xavotir darajasi yuqori qiymatlar oralig'ida qoldi (2-rasm).



2-rasm. Davolanishdan keyin reaktiv va shaxsiy xavotir ko'rsatkichlari

Bunday natijalar yurak-qon tomir kasalliklarida shikoyatlarining kamayishi, shuningdek, bemorlarning umumiy ahvoli yaxshilanishi bilan bog'liq edi. Taqqoslash guruhiga nisbatan asosiy guruhdagi shikoyatlarning yanada muhim ijobiy dinamikasi statistik jihatdan ishonchli edi ($p < 0,05$). R.Lazarusning "koping-strategiyasi" so'rovnomasini baholash natijalariga ko'ra, davolanishdan keyin tekshirilgan guruhlarda afzal topilgan koping -strategiyalarining keskinligi pasaygan va asosiy guruhda aniqroq bo'ldi.

Tadqiqotimizning ikkinchi bosqichida psixoterapevtik ta'sir ostida turli xil affektiv buzilishlarga ega yurak-qon tomir kasalliklari bo'lgan bemorlarda klinik va psixologik xususiyatlarning o'zgarishi baholandi. Bunday bemorlarda R.Lazarusning "koping-strategiyasi" so'rovnomasi ma'lumotlarini taqqoslash shuni ko'rsatdiki, aralash xavotirli-depressiv buzilish va yengil depressiv epizod bilan og'rigan bemorlarning afzal ko'rgan koping strategiyalari o'rtasida sezilarli farqlar yo'q edi. Yengil depressiv epizod bilan tekshirilgan bemorlarda, xavotir va depressiyaning kasalxona shkalasi aralash xavotirli-depressiv buzilishi bo'lgan bemorlarga nisbatan depressiya va shaxsiy xavotir darajasining sezilarli pasayishi kuzatildi.

Shunday qilib, ma'lum bir shaxs tipologiyasi shakli va psixopatologik buzilishlar bilan bog'liq bo'lgan stressli hayotiy vaziyatlarni yengish strategiyasining kognitiv va xulq-atvor mazmunini tuzatishga qaratilgan kognitiv psixoterapiyani qo'llash yurak-qon tomir kasalliklari bo'lgan bemorlarda xavotirli-depressiv buzilishlarga qarshi terapevtik chora-tadbirlarning samaradorligini oshirishga imkon berdi.

Xulosa

Yurak-qon tomir kasalliklarida xavotirli-depressiv buzilishlarga chalingan bemorlarning klinik va psixologik xususiyatlari, reaktiv va shaxsiy xavotirlarning yuqori darajasi sezilarli darajada psixoemotsional stressli vaziyatlar bilan tavsiflanadi. Stress bilan kurashish bo'yicha yetakchi strategiyalarning yuqori darajadagi kuchlanishi ushbu parametrlar bilan bog'liq bo'lib, ular orasida ikkala guruhda ham "o'z-o'zini boshqarish", "ijtimoiy yordam qidirish", "muammoni yechimini rejalashtirish" ko'rinishidagi moslashuvchan kurash strategiyalari va "vaziyatdan qochish", "masofa saqlash" va "ijobiy qayta baholash" ko'rinishida moslashuvchan bo'lmagan kurash strategiyalari qayd etilgan. Xavotirli-depressiv buzilishlari bo'lgan bemorlarda stressni yengish uchun yetakchi strategiyalarni tanlash ushbu bemorlarning asosiy shaxs-tipologik va gender xususiyatlari bilan ma'lum

bir bog'liqlikda ekanligini ochib beradi. Xavotirli - shubhali, nomoishkor va emotsional-labil tipdagi shaxslar "ijtimoiy yordam qidirish" strategiyasini afzal ko'rishadi. Rasmiyatchi shaxslar "o'zini o'zi boshqarish" koping-strategiyasidan foydalanadilar. Distimik aktsentuatsiyaga ega bo'lgan shaxslar esa "masofa saqlash" va "vaziyatdan qochish" strategiyalarini tanlaydilar. Ayollarning maqsadli xatti-harakatlari "ijtimoiy yordam qidirish" strategiyasini, erkaklarda esa "o'zini o'zi boshqarish" strategiyasini tanlash orqali amalga oshiriladi. Yurak-qon tomir kasalligida xavotirli-depressiv buzilishi bo'lgan bemorlarni davolash uchun kognitiv psixoterapiyadan foydalanish yuqori darajali stressni va bemorlarda xavotirli-depressiv buzilishlarning bartaraf qilishda koping-strategiyalariga qaratilgan psixoterapiya kompleks davolash tizimida davolashning barqarorligini oshirishga olib keldi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Альберт М.А., Биктимиров Т.З., Шутов А.М., и др. Приверженность к лечению и личностные особенности больных с хронической сердечной недостаточностью. // Ученые записки Ульяновского государственного университета. 2008; 1(13): 6–9.
2. Кубекова А.С. Психологические особенности больных психосоматического профиля с различными стратегиями защитно-совладающего поведения В.Ю. Рыбников, Е.Н. Ашанина, И.Ю. Кобозев, А.С. Кубекова // Вестник психотерапии. – 2020. – 74 (79). С. 97- 109.
3. Громова Е. А. Психосоциальные факторы риска сердечно-сосудистых заболеваний (обзор литературы) // СМЖ. – Томск, 2012. – №2. –С. 22-29.
4. Джангильдин Ю.Т., Баранов М.Л. Роль и место психотерапии в лечении больных гипертонической болезнью в стационарных условиях (Обзор литературы) // Медицинский вестник МВД. – 2012. - №1(56). – С. 57-59.
5. Мамедов М.Н. Оценка психологического статуса пациентов со стенокардией напряжения / М.Н. Мамедов, Р.Т. Дидигова, З.З. Булгачева // Кардиология. – 2012. – № 1. – С. 20-25.
6. Солодухин А.В., Беззубова В.А., Кухарева И.Н., Иноземцева А.А., Серый А.В., Яницкий М.С., Трубникова О.А., Барбараш О.Л. Взаимосвязь психологических характеристик внутренней картины болезни и копинг-поведения пациентов с ишемической болезнью сердца с параметрами их когнитивного статуса // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Психология и педагогика. 2017. Т. 14. № 2. С. 178-189.
7. Abdullaeva V.K., Safarbaev B.B., Palvanov R.O., Kurbonboev S.K., Muhtorov B.A. Psychological features of cardiological patients in the process of psychocorrection // Annals of R.S.C.B., ISSN:1583-6258, Vol. 25, Issue 2, 2021, pp. 3787 – 3793.
8. Abdullaeva V.K., Abbasova D.S., Sultonova K.B. et al. Predict depressive disorders at the earliest stages of its formation. Annali d'Italia - 2020. - VOL 1, No 7; pp 15-18.
9. Abdullaeva V.K., Nurkhodjaev S.N. Optimization of Therapy of Treatment Resistant Depressions in patients taking into account Personal Characterestics. // Jornal of Research in health science, 67-72, 2019.
10. Abdullaeva, V.K., Daminov, B.T., Nasirov, A.A., Rustamova, J.T., A. Yen, Y. Features of affective disorders and compliance of patients with chronic renal failure receiving replacement therapy by hemodialysis // International Journal of Pharmaceutical Research, 2020, 12(4), стр. 531–535
11. Amir M. The World Health Organization quality of life assessment // Europ, PsychiaL - 2018 - Vol. 9. - Suppl. 1. - P. 68.
12. Babarakhimova S.B., Shakhanskaya O.V., Iskandarova J.M. Personal characteristics of women with depressive disorders and their impact on the quality of life. // Collections of the 2013 SIC sociosphere conference.
13. Leonard, B.E., 2001. The immune system, depression, and the action of antidepressants. Progr. Neuro-Psychopharmacol. Biol. Psychiatry 25, 767-780. [https://doi.org/10.1016/S0278-5846\(01\)00155-5](https://doi.org/10.1016/S0278-5846(01)00155-5)
14. Lush E., Salmon P., Floyd A., Studts J.L., Weissbecker I., Sephton S.E. Mindfulness meditation for symptom reduction in cardio-myalgia: psychophysiological correlates. // Journal of Clinical Psychology in Medical Settings 2009 Jun; 16 (2): 200-7.
15. Matveeva A.A., Sultonova K.B., Abbasova D.S. et al. Optimization of psycho-diagnostics of emotional states // Danish Scientific Journal. VOL 3, No 5(2020), pp.24-27.

Qabul qilingan sana 09.09.2022